



Berdiyeva Malikaxon Abdukaxxorovna

ToshDO`TAU I-bosqich tayanch doktoranti

ONA TILI DARSLARIDA HIKMATLI SO`ZLAR BILAN ISHLASH ORQALI NUTQ O`STIRISH METODIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada hikmatli so`zlar, nutq o`stirish, nutq o`stirishning metodikalari haqida ma`lumotlar keltirildi.

Kalit so`zlar: Ta`limdagisi islohotlar, til, hikmatli so`zlar, nutq o`stirish metodikalari

KIRISH

Ta`lim tizimidagi islohotlar, tubdan yangilanishlar va Davlat tili to`g`risidagi qonun o`quvchilar nutqini shakllantirish, xususan, katta yoshdagi o`quvchilar nutqini o`stirish metodikasi va amaliyotida o`zgarishlar bo`lishini taqozo etadi. Bu o`zgarishlar me`yoriy o`quv-metodik adabiyotlarda muayyan darajada o`z aksini topgan. Ayni vaqtda ularga hozirgi talablar nuqtayi nazaridan tanqidiy yondoshish talab etiladi.

ASOSIY QISM

Ko`pchilik olimlar maktab o`quvchilarining nutqini o`stirish shartlarini to`g`ri ta`kidlaydilar. Ularning fikricha, nutq madaniyatining pastligi o`quvchi shaxsiyatiga salbiy ta`sir ko`rsatadi. Sinfdoshlari orasida tabaqlashish yuzaga keladi. Bu , ayniqsa , o`g`il bolalarda ko`proq kuzatiladi. Tengdoshlari bilan muloqotda qo`rs, odamovi, quntsiz bo`lib qoladi. Bundan tashqari,bunday o`quvchilardada tevarak-atrofni o`rganishga bo`lgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa maktabda darslarni o`zlashtira olmaslikka sabab bo`ladi. E`lon qilingan taddiqot ishlarini umumlashtirib o`rgangan holda ularning ko`pchiligidagi maktab yoshdagisi o`quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalarni hal etishga nisbatan quydagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqladik:

- o`quvchida nutq eshitish ko`nikmasini shakllantirish, talaffuzni esa keyinroq mukammal egallasa bo`ladi;
- _ aniq talaffuz hosil qilish, ya`ni qisqa va tushunarli so`zlardan foydalanish;
- _ so`zni talaffuz qilganda urg`uni to`g`ri qo`yish ustida ishlash;
- _ nutqning ifodalilagini shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya`ni nutqning ongli ifodalanishi);
- _ nutqiy eshitish ko`nikmalarini shakllantirish;
- _ o`z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish.

Tadqiqotchilardan L.P.Fedorenko va G.A.Fomichevalar metodik jihatdan muhim g`oyani ilgari suradilar: «Bolani nutqqa o`rgatish, – deb yozadi ular, unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) til belgilari, leksik va grammatik belgilari (intellektni mashq qildirish) ma`nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilari yordamida borliqni baholashni ifodalashni o`rgatish, adabiyot me`yorlarini eslashni osonlashtirishga ko`mak berish demakdir».

Adabiy til tushunchasi keng qamrovli, ko`p qirrali hodisadir. Adabiy til taraqqiyoti barqarorligini ta`minlashda bolalarning yoshlikdan nutq madaniyatlarini tarkib toptirish va tarbiyalash lozim.Til qonunlearning ta`limga tatbiqi munosabati bilan o`quvchilarni o`rgatishdagi usullarni to`g`ri qo`llash (ko`rgazmalilik, tarqatib berilgan topshiriqli qog`ozlar bilan ishlash yo`llarini bilish) usullari takomillashtiriladi.Ayniqsa, ona tili darsida mana shu usullarni to`g`ri qo`llay olish katta ahamiyatga ega. Boshlang`ich sinfdan 5- sinfga o`tgan o`quvchining nutqida kamchiliklar bo`lishi tabiiy. Ona tili darsligini (5- sinf Ona tili. Toshkent-2020) mavzulari fonetikadan boshlab(talaffuz va imlo me`yorlari,



leksikologiya, lug'atshunoslik, punktuatsiya) ish qog'ozlari ustida ishlashgacha uzviy bog'langan mavzular bilan tanishish orqali og'zaki va yozma nutqlarini shakllantirib boradilar.

"**Til – millatning ko'zgusi**", deydilar. Bu ko'zguni gard-g'uborl ardan, chang-to'zonlardan soniya sayin tozalay borish har birimizn ing farzandlik, fuqarolik burchimizdir. Til o'zagimizn ing, o'zligimizning, o'ziga bekligimizning bosh belgisidir. "Til – millatning ruhi, deyiladi. Til yo'qolsa, millat ham tamom bo'ladi. Til yashasa, millat ham yashaydi". TO'RA SULAYMON [3]

Muhammad Yusufning "Ona tilim"
Sen bo'lmasang, nima bizga silliq she'rlar,
"Bu dunyoda tili yo'qda dil yo'q", – derlar.
Bahoying-ku berib ketgan Alisherlar,
Yuragimning to'ridagi so'nmas gulim,
Ona tilim, kechir meni, ona tilim.[4]

Aql yomonlikka qaratilsa, inson razil, mak kor, aldamchi bo'lib qoladi. (Abu Nasr Forobi)[8]
Tabiat kimga aql-idrok, bilim bersa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi. (Yusuf Xos Hojib) [9]
Insonning eng sharafl i va buyuk darajasi uning aqlidir. (Abdurauf Fitrat)[9]

Odamiy ersang, demagil odamiy,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami. (Alisher Navoiy) [17]

Tilingni avayla, omondir boshing.
So'zingni avayla, uzayar yoshing. (Yusuf Xos Hojib) [27]

Bilim qaytarish, takrorlash mevasidir. (Beruniy) Zakovat qayda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi. Bilim kimda bo'lsa, buyuk bo'ladi. (Yusuf Xos Hojib) Bilim bilan saodat yo'li ochiladi, shunga ko'ra ilmli bo'l, baxt yo'li ni izla. (Ahmad Yughnakiy)
Bilmaganni so'rab o'rgangan – olim, Orlanib (uyalib) so'ramagan – o'ziga zolim (zulm qiluvchi). (Alisher Navoiy) Kishikim ilm-u fandin boxabardir, xaloyiqqa mo'tabardir. (Abdulla Avloniy) [52]

Китобнинг сони эмас, унинг яхшиси фойда келтиради.
(Цицерон, юонон) Саводли бўла туриб китоб ўқимаган кишининг саводсиздан фарқи йўқ. (Марк Твен, инглиз)
Яхши китоб – бу менинг ҳаётимдаги муҳим бир ҳодиса.
(Стендалъ, француз) Китоблар донишмандликни ёйиш куролидир. (Ян Коменский, поляк) [60]

Erta turishni odat qil. Har kishikim quyosh chiqquncha uyquda bo'lsa, rizqi kam bo'lur. ("Qobusnama") Rostgo'ylik insonni ulug'lar darajasiga yetkazadi. (Alisher Navoiy) Og'iz va tilning bezagi to'g'ri so'zdir, so'zni to'g'ri so'zla, dilingni beza. (Ahmad Yughnakiy) Adovat emas,adol at yengadi.
(Amir Temur) Do'stlik – insonning eng a'lo fazilati. (Oybek)



El mehri, do'st mehri bilmaydi sarhad. (Mirtemir) [66-67]
 Darslikda keltilgan hikmatli so'zlarni mavzu doirasi va ixcham ekanligi o'quvchini qiziqtiradi.

Sharq mutafakkirlari va jahon faylasuflari	Mavzu nomi
Alisher Navoiy	Til, odob, odamiylik
Abdulla Avloniy	Tarbiya
Amir Temur	Kuch, bilim, adolat
Ahmad Yughnakiy	To`g`ri so`zlik
Oybek	Do'stlik
Mirtemir	Mehr
“Qobusnoma”	Erta turmoqlik
Yan Komenskiy	Kitob
Mark Tven	Savodli bo'lish
Sitseron	Yaxshi kitob
Stendal	Kitob
Yusuf Xos Hojib	Tilni avaylash
Beruniy	Bilim
Muhammad Zehniy	Xushmuomalalik, odob, zehn
Abdurauf Fitrat	Aql
Abu Nasr Farobiy	Makkorlik, razilllik
Muhammad Yusuf	Til
To`ra Sulaymon	Til

XULOSA

O'quvchilar nutqini rivojlantirish va ularga ona tilini o'rgatish sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

- Nutqni rivojlantirish – bu o'quvchining individual rivojlanishida markaziy o'rinni egallovchi ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishiga oid o'ta murakkab va ko'p omilli jarayondir.
- Bu stixiyali jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir. O'quvchining nutqiy rivojlanish jarayonini boshqaruvchi pedagog ushbu jarayon qonuniyatlar, mexanizmlari va uning turli yosh bosqichlaridagi xususiyatlarini bilishi, nutqiy rivojlanishning individual xususiyatlarini ko'ra bilishi va o'quvchiyning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda uning nutqiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng samarali yo'llarini tanlashi shart. Pedagoglar o'quvchi nutqini reivojlantirish metodlarini qo'llay olishi, ularni qiziqtira olishi, ravon nutq so'zlashga o'rgatishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazimov O. Multimedia - Noyob ne'mat. //«Xalq so'zi» gazetasi, 2002, 28-fevral.
2. Ibragimova G. Nutq o'stirish metodikalari. <http://www.newjournal.org/> Volume-15_Issue-1_October_2022
3. N. Mahmudov, A. Sobirov va boshqalar. Ona tili. 5 sinf. Toshkent-2020.